| INVESTITSION JOZIBADORLIKNING IQTISODIY MOHIYATI VA INVESTITSIYA NAZARIYALARI<br>INTEGRATSIYASI .....                                                                   | 624 |
| Abdullayeva Nilufar Ruslanovna                                                                                                                                          |     |
| QURILISH KORXONALARINI KORPORATIV QIMMATLI QOG'OZLAR ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING<br>ILG'OR XORIY TAJRIBASI VA UNI QO'LLASH YO'NALISHLARI.....                           | 630 |
| Igitov Jurabek Kuzibekovich                                                                                                                                             |     |
| OPEN BANKING AS A DRIVER OF FINANCIAL INNOVATION AND INCLUSION IN UZBEKISTAN'S<br>BANKING SECTOR.....                                                                   | 637 |
| Kuvatova Oliy Sheraliyevna, Asadbek Ergashov                                                                                                                            |     |
| TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BOSHQARISH VOSITALARI .....                                                                                              | 642 |
| Sadikov Q.M.                                                                                                                                                            |     |



|                                                                                                                                                     |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| BOSHQARUV HISOBIDA NARX SHAKLLANISHINING NAZARIY JIHATLARI (TOVAR BOZORIDA USTUN MAVQEGA EGA XO'JALIK SUBYEKTLARI MISOLIDA).....                    | 646 |
| <b>Xaitmetov Elmurat Sidikmatovich</b>                                                                                                              |     |
| ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ЭНЕРГОЁМКОСТИ ВВП НА ОСНОВЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ.....                                                                         | 652 |
| <b>Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.</b>                                                                                                                |     |
| XALQARO LOYIHALARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI INTEGRATSIYA YETUKLIGI MODEL VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....                                | 659 |
| <b>Ne'matova Bonura Umid qizi</b>                                                                                                                   |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ICHKI AUDITNING MOHIYATI, MAQSADI VA ASOSIY VAZIFALARI.....                               | 664 |
| <b>Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich</b>                                                                                                            |     |
| OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....                                          | 674 |
| <b>Xusanova Gavhar</b>                                                                                                                              |     |
| MAHALLIY SHAROITDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI KO'P MEZONLI BAHOLASHNING IQTISODIY YO'NALTIRILGAN GIBRID MODEL VA UNING AMALIY QO'LLANILISHI..... | 679 |
| <b>Mirzayeva Shaxnoza Mamat qizi</b>                                                                                                                |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QUYOSH FOTOELEKTR STANSIYALARINING HOLATI VA O'RNATILGAN QUVVATLARINI TAHLIL QILISH.....                                 | 683 |
| <b>Maxamadiyev Farrux Mirazimovich, Baratov Laziz Suyun o'g'li</b>                                                                                  |     |
| BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARNING NAZORATINI TASHKIL QILISH.....                                                             | 688 |
| <b>Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Dadaboyev Abdurahmon Ne'matjon o'g'li</b>                                                                     |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI.....                                                    | 693 |
| <b>Yusubov Inomjon Ikrom o'g'li</b>                                                                                                                 |     |
| MOLIYAVIY RESURSLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK VA AMALIY JIHATLARI.....                                                                   | 699 |
| <b>Narzulloyev Behruz Baxtiyor o'g'li</b>                                                                                                           |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI AMALIYOTI TAHLILI.....                                                                       | 702 |
| <b>Kazakbayev S.B.</b>                                                                                                                              |     |
| BOG'DORCHILIK TARMOG'NI RIVOJLANTIRISHDA SUV TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....                | 705 |
| <b>Sattorov Orifjon Boymurodovich</b>                                                                                                               |     |
| MHXS ASOSIDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING BUGALTERIYA HISOB VA MOLIYAVIY TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....                              | 709 |
| <b>Alimov Baxodir Batirovich</b>                                                                                                                    |     |



# MHXS ASOSIDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING BUGALTERIYA HISOBI VA MOLIYAVIY TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI



**Alimov Baxodir Batirovich**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi  
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining  
"Loyiha boshqaruvi" kafedrası professori v.b., PhD dots.  
E-mail: bakhodir.alimov.84@gmail.com.  
ORCID: 0009-0001-7356-3192

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada sug'urta kompaniyalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), xususan IFRS 17 talablari asosida takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi sug'urta tashkilotlarida moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirish, sug'urta majburiyatlarini aniq baholash hamda risklarni samarali boshqarish mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Maqolada xalqaro tajribalar asosida sug'urta kompaniyalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, moliyaviy tahlilni rivojlantirish va uning boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi strategik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik usullar hamda SWOT-tahlil metodlaridan foydalanildi. Rivojlangan davlatlar sug'urta kompaniyalarining 2023–2030-yillarga mo'ljallangan rivojlanish tendensiyalari, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari va kapital yetarliligi darajasi tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritish moliyaviy ma'lumotlarning ishonchliligi va shaffofligini oshirishga, investitsiya jozibadorligini kuchaytirishga hamda risklarni yanada aniq baholashga xizmat qilishini ko'rsatdi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni hisob va tahlil jarayonlariga integratsiya qilish sug'urta kompaniyalarining operatsion samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot yakunida sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilish, aktuar tahlilni rivojlantirish hamda moliyaviy tahlilni strategik boshqaruv tizimi bilan uyg'unlashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi. Ushbu natijalar sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ularning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuv imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** MHXS, sug'urta kompaniyalari, buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil, IFRS 17, risklarni boshqarish, investitsiya faoliyati, sug'urta zaxiralari, xalqaro tajriba, moliyaviy barqarorlik.

**Abstract.** This scientific article examines the improvement of accounting and financial analysis in insurance companies based on International Financial Reporting Standards (IFRS), particularly the requirements of IFRS 17. The main objective of the study is to enhance the transparency of financial reporting in insurance organizations, ensure the accurate valuation of insurance liabilities, and identify effective risk management mechanisms.

Based on international experience, the article highlights the organization of accounting systems in insurance companies, the development of financial analysis, and its strategic role in managerial decision-making. The research applies a systematic approach, comparative analysis, economic and statistical methods, and SWOT analysis. Development trends of insurance companies in developed countries for the period 2023–2030, as well as indicators of financial stability and capital adequacy, are analyzed.



The results demonstrate that accounting based on IFRS improves the reliability and transparency of financial information, strengthens investment attractiveness, and enables more accurate risk assessment. It is also revealed that the integration of digital technologies into accounting and analytical processes enhances the operational efficiency of insurance companies.

Based on the research findings, scientific and practical recommendations were developed for modernizing accounting systems, improving actuarial analysis, and integrating financial analysis with strategic management. These results contribute to strengthening the financial stability of insurance companies and expanding their integration into international financial markets.

**Key words:** IFRS, insurance companies, accounting, financial analysis, IFRS 17, risk management, investment activity, insurance reserves, international experience, financial stability.

**Аннотация.** В данной научной статье исследуются вопросы совершенствования бухгалтерского учета и финансового анализа в страховых компаниях на основе Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО), в частности требований IFRS 17. Основной целью исследования является повышение прозрачности финансовой отчетности страховых организаций, обеспечение точной оценки страховых обязательств и определение эффективных механизмов управления рисками.

На основе международного опыта в статье раскрыты особенности организации бухгалтерского учета в страховых компаниях, развития финансового анализа и его стратегической роли в принятии управленческих решений. В ходе исследования применены системный подход, сравнительный анализ, экономико-статистические методы, а также SWOT-анализ. Проанализированы тенденции развития страховых компаний развитых стран на период 2023–2030 годов, а также показатели финансовой устойчивости и достаточности капитала.

Результаты исследования показали, что ведение бухгалтерского учета на основе МСФО способствует повышению достоверности и прозрачности финансовой информации, усилению инвестиционной привлекательности и более точной оценке рисков. Также установлено, что интеграция цифровых технологий в процессы учета и анализа повышает операционную эффективность страховых компаний.

По итогам исследования разработаны научно-практические рекомендации по модернизации системы бухгалтерского учета, развитию актуарного анализа и интеграции финансового анализа со стратегическим управлением. Полученные результаты способствуют укреплению финансовой устойчивости страховых компаний и расширению их интеграции в международные финансовые рынки.

**Ключевые слова:** МСФО, страховые компании, бухгалтерский учет, финансовый анализ, IFRS 17, управление рисками, инвестиционная деятельность, страховые резервы, международный опыт, финансовая устойчивость.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida sug'urta bozori moliyaviy tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalari moliyaviy resurslarni samarali qayta taqsimlash, risklarni boshqarish hamda investitsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ularning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotining aniqligi, ishonchliligi hamda shaffofligi alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda xalqaro miqyosda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), xususan, IFRS 17 "Sug'urta shartnomalari" standartining joriy etilishi sug'urta kompaniyalarida buxgalteriya hisobini yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur standart sug'urta majburiyatlarini yanada aniq baholash, daromad va xarajatlarni to'g'ri tan olish hamda risklarni moliyaviy hisobotda to'liq aks ettirish imkonini yaratadi.

Bugungi kunda jahon moliya tizimida sug'urta kompaniyalari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya resurslarini shakllantirish hamda turli risklarni samarali boshqarishda muhim institutsional subyekt sifatida faoliyat yuritmoqda. Global iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro moliya bozorlarining kengayishi va kapital harakatining faollashuvi sug'urta kompaniyalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida yuritishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Shu nuqtai nazardan, MHXS asosida sug'urta kompaniyalarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilini takomillashtirish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, IFRS 17 standartining joriy etilishi sug'urta shartnomalarini hisobga olish, sug'urta majburiyatlarini baholash hamda daromad va xarajatlarni tan olish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Bu esa sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natijalarni aniqlash, risklarni baholash va kapital yetariligidini hisoblashda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash imkonini kengaytiradi. Natijada, milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish va tahlil mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.



Sug'urta kompaniyalari faoliyati yuqori darajadagi risklar bilan bog'liq bo'lganligi sababli, ushbu risklarni to'g'ri hisobga olish va samarali boshqarish moliyaviy hisobot sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda sug'urta majburiyatlarini diskontlash, aktuar hisob-kitoblarni qo'llash va investitsiya portfelini kompleks baholash kabi ilg'or mexanizmlar keng qo'llanilmoqda. O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishlarda izchil islohotlar amalga oshirilmoqda va zamonaviy tahlil vositalarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy boshqaruv tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda.

Shuningdek, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi investorlar, davlat va mijozlar ishonchini mustahkamlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlar asosida shakllantirilishi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, kapital bozorlarida faol ishtirok etish va sug'urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Shu sababli MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy tahlilni rivojlantirish sug'urta kompaniyalarining uzoq muddatli strategik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mavzuning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, sug'urta tashkilotlarida boshqaruv qarorlarining samaradorligi moliyaviy tahlil sifati bilan bevosita bog'liqdir. Moliyaviy ko'rsatkichlarning xalqaro standartlar asosida shakllantirilishi, risklarning aniq baholanishi va aktivlardan foydalanish samaradorligining chuqur tahlil qilinishi kompaniyaning strategik rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa o'z navbatida sug'urta bozorining barqaror va samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, sug'urta sohasida raqamli transformatsiya jarayonlarining izchil rivojlanishi ham ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy ma'lumotlarni qayta ishlash, ularni real vaqt rejimida tahlil qilish va prognozlash imkoniyatlari buxgalteriya hisobi tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Shu bois, MHXS talablariga mos keluvchi zamonaviy buxgalteriya hisobi tizimini shakllantirish bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, sug'urta kompaniyalarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilini MHXS asosida takomillashtirish moliyaviy hisobotlarning aniqligi va ishonchligini oshirish bilan bir qatorda, risklarni samarali boshqarish, investitsiya faoliyatini rivojlantirish, kapital yetarlligini ta'minlash hamda xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuv imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan mazkur mavzu muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, uni chuqur o'rganish va ilmiy asosda takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston sug'urta bozorida ham xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar sug'urta kompaniyalarining moliyaviy boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, moliyaviy tahlil samaradorligini oshirish hamda xalqaro tajribalarni amaliyotga keng joriy etish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilish, moliyaviy tahlilni chuqurlashtirish va ilg'or xalqaro amaliyotni moslashtirish yo'nalishlarida izchil rivojlanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot maqsadi – Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida sug'urta kompaniyalarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilini takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqish hamda ilg'or xalqaro tajribalarni tizimli ravishda tahlil qilishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sug'urta kompaniyalarida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ning ahamiyati va mazmuni ko'plab xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Quyida ushbu masalaga oid asosiy ilmiy qarashlar tahlil qilinadi.

Epstein Barry J. va Mirza Abbas Alining fikricha, MHXS sug'urta kompaniyalarida moliyaviy hisobotlarning xalqaro darajada taqqoslanishini ta'minlaydigan yagona konseptual tizim hisoblanadi. Ularning ta'kidlashicha, ushbu standartlar sug'urta majburiyatlari, daromadlar va risklarni aniq, ishonchli hamda shaffof aks ettirish imkonini yaratadi [1].

Peter Walton MHXSni sug'urta kompaniyalari uchun investorlarga yo'naltirilgan axborot tizimi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, IFRS 17 sug'urta shartnomalarining iqtisodiy mazmunini to'liq va haqqoniy aks ettirish, shuningdek, moliyaviy natijalarni aniq baholash imkonini beradi [2].

Christopher Nobes o'z ilmiy tadqiqotlarida MHXSni sug'urta tashkilotlari faoliyatini xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuvini ta'minlovchi muhim vosita sifatida baholaydi. Uning fikriga ko'ra, ushbu standartlar sug'urta majburiyatlarini baholashda yagona metodologik asosni shakllantirib, moliyaviy hisobotlarning ishonchligini oshiradi [3].

J. David Cumminsning ilmiy qarashlariga ko'ra, MHXS sug'urta kompaniyalarida risklarni moliyaviy hisobot orqali baholash va kapital barqarorligini aniqlashda muhim analitik platforma vazifasini bajaradi. U MHXS sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [4].



Mamlakatimiz olimlaridan S.E. Elmiraev MHXSni milliy sug'urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro talablarga moslashtirish, investorlar uchun ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida ta'riflaydi [5].

B. Alimovning ilmiy qarashlariga ko'ra, MHXS sug'urta tashkilotlarida aktivlar, majburiyatlar va sug'urta zaxiralarini ularning real iqtisodiy qiymatida baholash imkonini beruvchi zamonaviy buxgalteriya hisobi tizimi hisoblanadi. Uning fikricha, ushbu standartlar moliyaviy ma'lumotlarning ishonchligi va aniqligini oshirishga xizmat qiladi [6].

Barry J. Epstein sug'urta buxgalteriya hisobini sug'urta shartnomalari, sug'urta zaxiralar va investitsiya operatsiyalarini tizimli ravishda qayd etish, nazorat qilish va tahlil qilish jarayoni sifatida ta'riflaydi [1].

Robert H. Herzning fikricha, sug'urta buxgalteriya hisobi kompaniyaning moliyaviy holati, majburiyatlari va risk darajasini to'g'ri baholash uchun zarur bo'lgan muhim axborot tizimi hisoblanadi [7].

Peter Walton sug'urta buxgalteriya hisobini sug'urta kompaniyasi faoliyatining moliyaviy natijalarini aks ettiruvchi hamda sug'urta shartnomalarining rentabelligini aniqlash imkonini beruvchi tizim sifatida izohlaydi [2].

J. David Cummins sug'urta buxgalteriya hisobini risklarni moliyaviy ko'rsatkichlar orqali boshqarish va kompaniya moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik boshqaruv vositasi sifatida baholaydi [4].

N. Jo'rayevning ta'rifiga ko'ra, sug'urta kompaniyalarida buxgalteriya hisobi sug'urta operatsiyalarining moliyaviy natijalarini hisobga olish, nazorat qilish va tahlil qilishga xizmat qiluvchi muhim axborot tizimi hisoblanadi [8]. Uning fikricha, ushbu tizim sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Sh. Shodmonovning ta'rifiga ko'ra, sug'urta buxgalteriya hisobi sug'urta zaxiralarini shakllantirish, sug'urta to'lovlarini boshqarish va investitsiya daromadlarini samarali nazorat qilishning asosiy moliyaviy instrumenti hisoblanadi [9]. Olim ushbu tizim sug'urta kompaniyasining moliyaviy faoliyatini samarali tashkil etishda muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi.

J. David Cummins moliyaviy tahlilni sug'urta kompaniyalarining risk darajasi, kapital yetariligi va rentabelligini aniqlashga qaratilgan kompleks tahliliy jarayon sifatida izohlaydi [4]. Uning fikricha, moliyaviy tahlil sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Swiss Re Institute tadqiqotchilarining fikricha, sug'urta kompaniyalarida moliyaviy tahlil kompaniyaning moliyaviy barqarorligini baholash, zararlar darajasini aniqlash hamda investitsiya faoliyati samaradorligini tahlil qilish imkonini beruvchi muhim instrument hisoblanadi [10].

Peter Drucker moliyaviy tahlilni boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va baholash jarayoni sifatida talqin qiladi [11]. Uning fikricha, moliyaviy tahlil kompaniya boshqaruvi samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Christopher Nobes moliyaviy tahlilni sug'urta kompaniyasining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini prognozlash va strategik rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv vositasi sifatida baholaydi [3].

S. Elmiraev moliyaviy tahlilni sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlik, to'lov qobiliyati va kapital samaradorligini aniqlashga xizmat qiluvchi muhim analitik mexanizm sifatida izohlaydi [5].

B. Alimovning qarashlariga ko'ra, sug'urta kompaniyalarida moliyaviy tahlil risklarni baholash, sug'urta portfeli samaradorligini aniqlash hamda kompaniyaning strategik rivojlanishini ta'minlashda muhim boshqaruv instrumenti hisoblanadi [6].

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy hisobot tizimini takomillashtirish masalalari keng qamrovda o'rganilgan. Ayniqsa, IFRS 17 standartining joriy etilishi sug'urta majburiyatlarini baholash metodologiyasini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarda quyidagi ilg'or yondashuvlar keng qo'llaniladi:

- sug'urta majburiyatlarini diskontlash asosida baholash;
- risklarni alohida moliyaviy komponent sifatida hisobga olish;
- sug'urta shartnomalari darajasida daromadlarni tan olish;
- kapital yetariligini kompleks baholash tizimlarini qo'llash.

Ilmiy manbalarda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotini takomillashtirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari ajratib ko'rsatiladi:

- sug'urta zaxiralarini aniq baholash metodlarini takomillashtirish;
- risklarni hisobga olishning zamonaviy modellarini joriy etish;
- investitsiya faoliyatining moliyaviy natijalarga ta'sirini chuqur tahlil qilish;
- Solvency II va IFRS 17 standartlari uyg'unligini ta'minlash.

Xorijiy tajribada sug'urta kompaniyalarida moliyaviy tahlil kompaniyaning likvidligini aniqlash, kapital barqarorligini baholash, risk darajasini prognozlash hamda investitsiya faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, solishtirma tahlil (xalqaro tajribalar asosida), statistik va moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili hamda ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy hisobot tizimi va buxgalteriya hisobini tashkil etish mexanizmlari tanlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR


MHXS asosida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish yo'nalishlari. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, sug'urta kompaniyalarida MHXSni joriy etish moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirishga, risklarni yanada aniq baholash imkoniyatlarini kengaytirishga, investorlar ishonchini mustahkamlashga hamda boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. IFRS 17 asosida sug'urta majburiyatlarini bozor qiymatiga yaqin baholash, daromadlarni shartnoma muddati davomida bosqichma-bosqich tan olish va risk marjasini alohida hisoblash kabi elementlar muhim ahamiyat kasb etadi.

MHXS asosida faoliyat yuritayotgan rivojlangan davlatlar sug'urta kompaniyalari tajribasi shuni ko'rsatadiki, 2023-yildan boshlab IFRS 17 standartining joriy etilishi moliyaviy natijalarni baholash, risklarni hisobga olish va kapitalni boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish imkonini berdi. 2023–2030-yillar oralig'ida sug'urta sektorida ijobiy rivojlanish tendensiyalarining izchil davom etishi prognoz qilinmoqda.

Moliyaviy barqarorlik va kapital ko'rsatkichlari dinamikasi. Rivojlangan davlatlarda faoliyat yurituvchi yirik sug'urta kompaniyalari (AQSH, Germaniya, Yaponiya va Buyuk Britaniya) misolida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, kapital yetarliligini oshirish va risklarni samarali boshqarish ko'rsatkichlarida barqaror ijobiy natijalar kuzatilmogda (1-rasm).



1-rasm. Rivojlangan davlatlarda faoliyat yurituvchi yirik sug'urta kompaniyalari(AQSH, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya)ning umumiy natijalari [12]



2-rasm. Rivojlangan davlatlarda faoliyat yurituvchi yirik sug'urta kompaniyalari(AQSH, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya)ning strategik prognoz natijalari [12]

MHXS joriy etilishi natijasida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy natijalari yanada shaffoflashib, investorlar uchun ishonchlilik darajasi oshmoqda. Bu esa uzoq muddatli kapital oqimlarining barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda.

Operatsion samaradorlik ko'rsatkichlari. Rivojlangan sug'urta kompaniyalari faoliyatida quyidagi moliyaviy indikatorlar ijobiy dinamikani namoyon etmoqda:

- kombinatsiyalangan koeffitsientning pasayishi (xarajatlar samarali optimallashtirilishi natijasida);



- zararlar darajasi ustidan samarali nazoratning kuchayishi;
- sug'urta portfelining diversifikatsiya darajasining oshishi;
- investitsiya daromadlari ulushining ortishi.

2030-yilga borib sug'urta kompaniyalari aktivlarining umumiy hajmi sezilarli darajada kengayishi, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalari asosida risklarni baholash tizimlari asosiy boshqaruv vositalaridan biriga aylanishi hamda moliyaviy tahlil real vaqt rejimida amalga oshiriladigan zamonaviy tizimlarga o'tishi prognoz qilinmoqda.

MHXS asosida buxgalteriya hisobini takomillashtirish strategiyalari:

1. MHXS 17 (Insurance Contracts) standartini to'liq joriy etish orqali sug'urta shartnomalarini baholashda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash (Expected Cash Flow modeli), sug'urta majburiyatlarini diskontlash asosida aniq baholash, foyda va zararlarini hisobot davrlari kesimida asosli taqsimlash hamda sug'urta zaxiralarini xalqaro talablar asosida hisoblash.

2. Natija: Moliyaviy hisobotlarning aniqligi, ishonchligi va taqqoslanuvchanligi oshadi.

3. Hisob siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirish orqali aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymatda baholash, sug'urta mukofotlari va sug'urta to'lovlarini to'g'ri tasniflash hamda qayta sug'urtalash operatsiyalarini alohida hisobga olish.

4. Raqamli buxgalteriya tizimlarini joriy etish orqali ERP va avtomatlashtirilgan hisob tizimlaridan foydalanish, moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida shakllantirish, ma'lumotlarning aniqligini oshirish hamda inson omilining ta'sirini kamaytirish.


Moliyaviy tahlilni takomillashtirish strategiyalari:

1. MHXS asosida yangi tahliliy ko'rsatkichlarni joriy etish. Sug'urta kompaniyalari faoliyatini baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq:


- zararlilik darajasi (Loss Ratio);
- kombinatsiyalangan koeffitsient (Combined Ratio);
- kapital yetarliligi darajasi (Capital Adequacy);
- likvidlilik darajasi (Liquidity Level);
- investitsiya daromadligi (Return on Investment).

2. Riskga yo'naltirilgan tahlil tizimini rivojlantirish orqali aktuar tahlil usullarini keng joriy etish, sug'urta portfelini diversifikatsiya qilish hamda sug'urta risklarini zamonaviy modelashtirish usullaridan foydalanish.

3. Prognozlash va strategik tahlil tizimini takomillashtirish orqali pul oqimlarini (cash-flow) prognozlash, stress-test va ssenariy tahlillarini amalga oshirish hamda sug'urta kompaniyalarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini baholash (3-rasm).



3-rasm. Innovatsion va raqamli transformatsiya strategiyalari [12]



4-rasm. Kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik [12]



1-jadval. Sug'urta kompaniyalarining SWOT-tahlili (MHXS asosida) [12]

| Kuchli tomonlar                                                                                                                                     | Zaif tomonlar                                                                                                                                                                             |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| – Moliyaviy shaffoflikning yuqori darajasi. MHXS asosida hisobot yuritish investorlar va kreditorlar ishonchini mustahkamlaydi.                     | – IFRS 17 standartini joriy etish bilan bog'liq investitsiya ehtiyojlarining mavjudligi. Yangi standartlarga moslashish uchun qo'shimcha moliyaviy va texnologik resurslar talab etiladi. |
| – Kapital barqarorligi darajasining yuqoriligi. Rivojlangan kompaniyalarda kapital yetarliligi risklarni samarali qoplash imkonini beradi.          | – Hisob-kitob jarayonlarining murakkabligi. Sug'urta majburiyatlarini baholash yuqori malakali mutaxassislarni talab qiladi.                                                              |
| – Risklarni boshqarish tizimining rivojlanganligi. Aktuar modellar va analitik platformalar risklarni aniq prognozlash imkonini beradi.             | – Aktuar mutaxassislarning salohiyatini yanada rivojlantirish zarurati. Ayrim hududlarda yuqori malakali kadrlar tayyorlash dolzarb hisoblanadi.                                          |
| – Diversifikatsiyalangan investitsiya portfeli. Investitsiya daromadlari sug'urta kompaniyalari daromadlarini barqaror qo'llab-quvvatlaydi.         | – Axborot tizimlariga yuqori darajada integratsiyalashganlik. Bu esa zamonaviy texnologik infratuzilmani muntazam rivojlantirishni talab qiladi.                                          |
| – Raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi. Avtomatlashtirilgan buxgalteriya va moliyaviy tahlil tizimlari samaradorlikni oshiradi.                 | – Moliyaviy natijalarning global bozor tendensiyalariga bog'liqligi. Foiz stavkalari va investitsiya bozorlaridagi o'zgarishlar natijalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin.                    |
| – Global moliya bozorlariga integratsiyalashuv imkoniyatining mavjudligi. Xalqaro kapital bozorlarida faol ishtirok etish imkonini beradi.          |                                                                                                                                                                                           |
| Imkoniyatlar                                                                                                                                        | Tahdidlar                                                                                                                                                                                 |
| – Raqamli sug'urta xizmatlarining rivojlanishi. InsurTech texnologiyalarining keng joriy etilishi yangi mijozlarni jalb qilish imkonini beradi.     | – Global iqtisodiy sikllarning ta'siri. Investitsiya portfeli qiymatida vaqtinchalik o'zgarishlar yuzaga kelishi mumkin.                                                                  |
| – Sun'iy intellekt asosida risklarni baholash tizimlarining joriy etilishi prognozlash aniqligini oshiradi.                                         | – Yirik sug'urta hodisalari (katastrofik risklar) yuzaga kelganda qo'shimcha moliyaviy resurslarni safarbar qilish zarurati paydo bo'lishi mumkin.                                        |
| – Yangi sug'urta mahsulotlarini rivojlantirish imkoniyati. Kiber risklar, ekologik risklar va sog'liqni sug'urtalash yo'nalishlari kengaymoqda.     | – Kiberxavfsizlik tizimlarini doimiy takomillashtirish zarurati. Raqamli tizimlar kengaygani sari axborot xavfsizligini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.                          |
| – Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatining kengayishi. MHXS asosida hisobot yuritish investitsiya jozibadorligini oshiradi.             | – Tartibga solish talablarining yangilanib borishi. Bu esa kompaniyalardan moslashuvchan boshqaruvni talab qiladi.                                                                        |
| – Moliyaviy tahlilni strategik boshqaruv tizimi bilan integratsiyalash imkoniyati. Real vaqt ma'lumotlari asosida samarali qarorlar qabul qilinadi. | – Sug'urta bozorida raqobatning ortib borishi kompaniyalarni yanada samarali faoliyat yuritishga undaydi.                                                                                 |
| – Rivojlanayotgan bozorlarga kirish imkoniyatlari. Osiyo va Afrika davlatlarida sug'urta xizmatlariga talab ortib bormoqda.                         | – Inflyatsiya va foiz stavkalaridagi o'zgarishlar moliyaviy ko'rsatkichlarni mos ravishda boshqarishni talab qiladi.                                                                      |

Jadval tahlillari shuni ko'rsatadiki, 2030-yilga borib rivojlangan sug'urta kompaniyalari:

- to'liq raqamlashtirilgan moliyaviy boshqaruv tizimiga o'tadi;
- MHXS asosida real vaqt rejimida moliyaviy tahlilni yo'lga qo'yadi;
- risklarni boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanadi;
- kapitaldan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Mazkur natijalar O'zbekiston sug'urta bozori uchun ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Institutsional rivojlanish strategiyalari:

– kadrlar salohiyatini oshirish orqali MHXS bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, aktuarlar va moliyaviy tahlilchilarni malaka oshirish kurslari orqali tayyorlash hamda xalqaro sertifikatlash tizimlarini (ACCA, CIPA) joriy etish;

– ichki nazorat va audit tizimini rivojlantirish orqali ichki auditni MHXS talablari asosida tashkil etish, risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish hamda moliyaviy operatsiyalar ishonchligini oshirish;

– shaffoflik darajasini oshirish orqali moliyaviy hisobotlarni xalqaro investorlar uchun ochiq va tushunarli shaklda taqdim etish hamda korporativ boshqaruv standartlarini keng joriy etish.

Raqamli transformatsiya ta'siri. 2023–2030-yillar oralig'ida rivojlangan sug'urta kompaniyalarining asosiy rivojlanish omillaridan biri raqamli transformatsiya hisoblanadi. Ushbu jarayon buxgalteriya hisobini



avtomatlashtirish, aktuar hisob-kitoblarni tezkor amalga oshirish, mijozlar bazasi va sug'urta risklarini aniq segmentatsiya qilish hamda moliyaviy prognozlash aniqligini oshirish imkonini bermoqda. Natijada moliyaviy tahlil strategik boshqaruvning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda va sug'urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Amaliy takliflar:

- MHXS 17 standartiga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha aniq yo'l xaritasini ishlab chiqish;
- sug'urta zaxiralarini baholashda zamonaviy aktuar modellardan keng foydalanish;
- moliyaviy tahlilni amalga oshirish uchun yagona metodologik yondashuvni shakllantirish;
- zamonaviy raqamli buxgalteriya va moliyaviy hisob platformalarini joriy etish;
- ichki audit va risk-menejment tizimlarini o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirish.

Moliyaviy tahlilni takomillashtirishning strategik yo'nalishlari. Xalqaro tajribaga asoslanib, quyidagi tahliliy ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari (kapital yetariligi, sug'urta zaxiralarining qoplanish darajasi, aktivlar rentabelligi);
- operatsion samaradorlik ko'rsatkichlari (zararlilik koeffitsienti, xarajatlar koeffitsienti, kombinatsiyalangan koeffitsient);
- investitsiya samaradorligi ko'rsatkichlari (investitsiya portfeli rentabelligi, risk va daromad muvozanati).

Xalqaro tajribalar asosida samarali strategiyalar. Rivojlangan davlatlar amaliyotida quyidagi strategiyalar yuqori samaradorlikni namoyon etmoqda:

- raqamli buxgalteriya tizimlarini joriy etish (real vaqt rejimida moliyaviy hisobot yuritish va avtomatlashtirilgan audit tizimlaridan foydalanish);
- riskga yo'naltirilgan hisob siyosatini qo'llash (aktuar hisob-kitoblarni keng joriy etish va prognozlash modellaridan foydalanish);
- integratsiyalashgan moliyaviy tahlil tizimini shakllantirish (buxgalteriya, risk va investitsiya ma'lumotlarini yagona tizimda birlashtirish).

Kapitalni boshqarish strategiyasi – Solvency II talablariga moslashish, kapital zaxiralarini samarali boshqarish va sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashga qaratilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, xalqaro tajribalar tahlili hamda 2023–2030-yillarga mo'ljallangan rivojlanish tendensiyalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, xususan IFRS 17 sug'urta kompaniyalari moliyaviy hisobotining shaffofligi va ishonchligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur standart sug'urta majburiyatlarini real iqtisodiy qiymat asosida baholash, moliyaviy natijalarni aniq va haqqoniy aks ettirish imkonini yaratib, investorlar va kreditorlar ishonchini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalarida buxgalteriya hisobi tobora strategik boshqaruvning muhim axborot bazasiga aylanib, nafaqat operatsion jarayonlarni hisobga olish, balki risklarni samarali boshqarish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim boshqaruv instrumenti sifatida xizmat qilmoqda.

Moliyaviy tahlil tizimining rivojlanishi esa kapital samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda likvidlik, rentabellik va zararlar darajasi ustidan doimiy va tizimli nazoratni ta'minlash imkonini bermoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt, Big Data va avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlarining joriy etilishi moliyaviy ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash, prognozlash aniqligini oshirish va boshqaruv samaradorligini ta'minlash orqali sug'urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini yanada kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni milliy sug'urta bozori amaliyotiga izchil moslashtirish sug'urta kompaniyalarining investitsiya jozibadorligini oshirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ularning xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, sug'urta kompaniyalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilni MHXS asosida takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Sug'urta kompaniyalarida IFRS 17 asosida yagona raqamli buxgalteriya platformalarini joriy etish. Bu moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida shakllantirish, monitoring qilish va tahlil qilish imkonini yaratadi hamda ma'lumotlarning aniqligi va ishonchligini oshiradi.

2. Aktuar hisob-kitoblar va risklarni prognozlash tizimini rivojlantirish. Sug'urta majburiyatlarini aniq baholash uchun zamonaviy matematik modellar, aktuar usullar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.



3. Moliyaviy tahlilni strategik boshqaruv tizimi bilan integratsiyalash. Moliyaviy ko'rsatkichlar asosida risklar, investitsiya faoliyati va sug'urta portfeli samaradorligini kompleks baholovchi zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarur.

4. MHXS bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish. Sug'urta kompaniyalari buxgalterlari, moliyaviy tahlilchilari va aktuariylari uchun maxsus malaka oshirish dasturlari hamda xalqaro sertifikatlash tizimlarini keng joriy etish tavsiya etiladi.

5. Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni baholashning zamonaviy indikatorlar tizimini joriy qilish. Kapital yetarliligi, risk darajasi, likvidlilik va investitsiya rentabelligini kompleks baholovchi integratsiyalashgan tahlil tizimini shakllantirish sug'urta kompaniyalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Epstein, B. J., & Mirza, A. A. (2022). Interpretation and Application of International Financial Reporting Standards. New York: John Wiley & Sons.
2. Walton, P. (2019). Global Financial Accounting and Reporting: Principles and Analysis. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Nobes, C., & Parker, R. (2020). Comparative International Accounting. London: Pearson Education Limited.
4. Cummins, J. D., & Weiss, M. A. (2018). Insurance Economics and Finance. New York: Springer Publishing.
5. Elmirzaev, Sh. N. (2019). Moliyaviy tahlil. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
6. Alimov, B. B. (2023). Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy boshqaruv va tahlil. Toshkent.
7. Herz, R. H. (2017). Accounting Developments in the Insurance Industry. Norwalk: Financial Accounting Standards Board (FASB) Publications.
8. Jo'rayev, N. T. (2018). Sug'urta faoliyatining buxgalteriya hisobi va audit. Toshkent: Fan va texnologiya.
9. Shodmonov, Sh. Sh. (2020). Moliya nazariyasi. Toshkent: Iqtisodiyot.
10. Swiss Re Institute. (2021–2024). Global Insurance Review: Annual Reports. Zurich: Swiss Re Institute.
11. Drucker, P. F. (2008). Management: Tasks, Responsibilities, Practices. New York: Harper & Row Publishers.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 2

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>